

## **TOSHKENT SHAHRIDA MADANIYAT MUASSASALARI**

O‘zbekistonning poytaxti bo‘lmish Toshkent shahrining madaniyati sharqning eng yorqin va o‘ziga xos madaniyatlaridan biridir. U ming yillar davomida shakllanib, zamonaviy Toshkent hududida turli vaqtarda yashagan xalqlarning urf-odatlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Buyuk ipak yo‘li xalqlar madaniyati, ularning urf-odatlari va san’atining birlashuviga hissa qo‘shtirgan.




### ***Toshkent shahrida kutubxonalar faoliyati***

2018 yilda kutubxonalar soni 252 tani tashkil etdi. Kutubxona foydalanuvchilari soni 2016 yilda 814,1 ming kishidan 2018 yilda 974,5 ming kishiga ko'paydi.


#### **Kutubxona muassasalari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2016-2018) yillar**

	<b>O‘lchov birligi</b>	<b>2016 y.</b>	<b>2017 y.</b>	<b>2018 y.</b>
<b>Kutubxona muassasalari soni</b>	birlik	255	251	252
<b>Kutubxona fondi</b>	ming nusxa	30527,0	20882,9	20895,4
<b>Kutubxonadan foydalanuvchilar soni</b>	ming nusxa	814,1	942,1	974,5




## **Kutubxona fondining dinamikasi va kutubxonadan foydalanuvchilar soni (birlik)**

**(2016 – 2018 y.)**



Kutubxona tizimi hozirgi kunda axborot-kutubxona markazlaridan (2 dona), o'quv yurtlaridagi axborot-resurs markazlaridan (219 dona), ko'zi ojizlar uchun kutubxonalardan (1 dona) va boshqalardan (29 dona) iborat.

## 2018 yilda Toshkent shahridagi ta'lif muassasalardagi axborot–resurs markazlari, %




### Toshkent shahrida muzeylar va teatrlar faoliyati

2018 yilda muzeylar soni 29 tani tashkil etdi. Tashrif buyuruvchilar soni 2016 yilda 1375,7 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda 1423,6 ming kishigacha, ya'ni 1,0 baravar ko'paydi. Teatrlar soni esa 18 tani tashkil etdi. Tomoshabinlar soni 795,3 ming kishini tashkil etdi.

### Muzey va teatr faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (2016-2018) yillar

	O'lcov birligi	2016 y.	2017 y.	2018 y.
Muzeylar soni	birlik	29	29	29
Muzeyga tashriflar soni	ming kishi	1375,7	1172,3	1423,6
Teatrlar soni	birlik	22	19	18
Teatrga tashriflar soni	ming kishi	829,8	781,6	795,3


## Muzey faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlar dinamikasi (2016-2018 y.)



Muzeyda turli xil eksponatlar mavjud. Muzey fondidagi eksponatlar 1034490 dona, shundan: 1626 ta haykaltaroshlik, 10212 ta rassomlik, 120006 numizmatika, 26113 maishiy va etnografiya buyumlari, 23998 grafika, 29551 ta amaliy san'at buyumlari, 106718 ta sur`atlar, 95585 arxeologiya buyumlari, 129245 ta hujjat, 491436 - ta boshqa eksponatlar.




### 2018 yilda eksponatlar turlari bo'yicha muzey fondlari,%



Boshqa turdagи eksponatlar 47,5 % ni tashkil qiladi, bu asosan tabiat muzeyi hissasiga to'g'ri keladi.


## Teatrlar sonining dinamikasi (2016-2018y.), birlik



2018 yilda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) soni 3732 tani, va teatrlarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 795,3 ming kishini tashkil etdi.




## 2018 yilda janrlar bo'yicha teatrlar faoliyati



2018 yilda mavjud 18 ta teatrlar janrlar bo'yicha tahlil qilinganda: 8 ta drama teatrlari, 2 ta bolalar qo'g'irchoq teatri, 2 ta yosh tomoshabinlar teatrlari, 5 ta musiqiy teatrlar va 1 ta opera va balet teatri mavjud.



## 2018 yilda janrlar bo'yicha teatrlar, %




### ***KONSERT TASHKILOTLARI VA SIRK FAOLIYATI***

2018 yilda konsert tashkilotlari soni 34 tani tashkil etdi. Shulardan, filarmoniya -1 ta, gastrol- konsert tashkilotlari - 26 ta, mustaqil jamoalar – 3 ta, konsert zallari, san'at saroylari - 4 tani tashkil etdi.


O'tkazilgan 675 konsertdan 265 tasi filarmoniya, 310 tasi gastrol tashkilotlari, 16 tasi mustaqil guruqlar, 84 tasi konsert zallari va san'at saroylarida o'tkazilgan.



## *Toshkent shahri bo'yicha konsert tashkilotlari faoliyati dinamikasi (2016-2018yillar)*



## *2018 yilda faoliyat turlari bo'yicha konsert tashkilotlari*



2018 yilda gastrol va konsert tashkilotlari tomonidan 310 ta konsert, filarmoniya tomonidan – 265 ta konsert, mustaqil jamoalarda - 16 ta konsert va konsert zallari va madaniyat saroylarida 84 ta konsert tashkil etildi.

### **SIRK FAOLIYATI**

Birinchi statsionar sirk Toshkent shahrida 1914 yilda qurilgan. 1976 yilda O'zbekiston davlat sirkining yangi binosi qurilib, 1999 yilda tubdan rekonstruktsiya qilindi. Toshkent shahrida 1 ta sirk faoliyat yuritadi.

### **Sirk jamoalarining asosiy ko'rsatkichlari**

Toshkent sh.	Sirklar soni, birlik	Tomosha zallarida o'rinalar soni	Namoyish lar soni, birlik	Tomosha binlar soni, ming kishi	Shtatdagi artist xodimlar soni, ming kishi	Shu jumladan, ayollar
	1	2499	754	186,4	177	82



### **Toshkentdagi hayvonot bog'i va botanika bog'i**

Toshkent hayvonot bog'i - bolalar bilan sayr qilishning eng maqbul joylaridan biri. Hayvonot bog'i 1924 yilda tashkil etilgan. Hayvonot bog'ining umumiyl maydoni 22 hektarni tashkil etadi. Yarim asr o'tgach, 1994 yilda yangi hayvonot bog'i qurilishi


boshlandi, uning hududi botanika bog'i hududida joylashgan edi. 1997 yilda hayvonot bog'i yangi joyga ko'chib o'tdi va o'zining yangilangan hududini ochdi.

### ***Hayvonot bog'i faoliyati***

2018 yilda jami tashriflar soni 127,2 ming kishini, shundan bolalar tomonidan qilingan tashriflar soni 46,4 ming kishini tashkil etdi.


Toshkent sh.	Hayvonot bog'lar soni, birlik	Hayvonot bog'ining umumiy maydoni, hektar	Hayvonot dunyosi namunalari (turlari) soni	O'simlik dunyosi namunalari (turlari) soni	Jami tashriflar, ming kishi.	Shu jumladan bolalar tomonidan, ming kishi.
	1	21,5	356	240	647,4	211,3

## 2018 yilda hayvonot bog' iga tashriflar, ming kishi.



Hayvonot bog'i o'simlik va hayvonot dunyosiga boy. Hayvonot bog'ida 356 dan ortiq fauna va 240 turdag'i flora mavjud.

## Hayvonot bog'i faunasi turlarining soni, birlik



## Botanika bog'ining faoliyati

*Botanika bog'i* Toshkent shahrining shimoliy-sharqiy qismida joylashgan. O'rta Osiyo mintaqasidagi eng katta botanika bog'i bo'lib, 66 hektar maydonni egallagan. Ushbu bog' 1920 yilda o'z faoliyatini boshlagan.




2018 yilda jami tashriflar soni 127239 kishini tashkil etdi. Bolalar tomonidan 322 ta ekskursiya o'tkazildi, ulardan 215 tasi muktab o'quvchilari tomonidan o'tkazilgan.




### ***Madaniyat va istirohat bog'lari***

2018 yilda Toshkent shahridagi madaniyat va istirohat bog'lari soni 26 taga yetdi.



Jami istirohat bog'larining umumiy maydoni 203,9 hektar maydonni egallagan. 2018 yilda Toshkentdagi istirohat bog'lariiga tashrif buyuruvchilar soni 2898,4 ming kishini tashkil qildi. Attraksionlar soni 333 donani tashkil etdi.



## Toshkentdagি madaniyat va aholi dam olish markazlari

Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi 178-sonli qaroriga binoan madaniyat va aholi dam olish markazlari tashkil etildi. Ularning faoliyati ommaviy madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari, tematik va adabiy-badiiy kechalar, teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq festivallari va konsertlarni o'z ichiga oladi.

Jadvalda 2018 yilda muassasalarining umumiyligi, o'tkazilgan tadbirlar va tashrif buyuruvchilar soni keltirilgan:

Toshkent sh.	Jami muassalar soni, birlik	Jami madaniy-ma'rifiy tadbirlar soni, birlik	Jami tashrif buyuruvchilar, soni, ming kishi
	34	3781	1522,0

Toshkent shahrining madaniyat muassasalarida 3781 ta madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Jami to'garaklar, studiyalar va badiiy havaskorlik jamoalari ishtirokchilari soni

3838 kishini tashkil etdi. Jumladan, to'garaklardagi ishtirokchilar - 2501 kishi, studiyalarda - 460 kishi, qiziqish bo'yicha uyushmalar va klublarda - 460 kishi, badiiy havaskorlik jamoalarida - 582 kishini tashkil qildi.

